


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIYAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDiy MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	



VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Botirov Lazizbek Botirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Audit kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada vinochilik sanoati korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish va takomillashtirishning nazariy masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, vinochilik sanoati korxonalarining buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va aks ettirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari, tovar-moddiy zaxiralar, hisob registrlari, aktivlar, inventarizatsiya, material qaytimi.

Abstract. This article examines the theoretical issues related to accounting practices and their improvement in wine industry enterprises. It also develops proposals for improving the recognition and presentation of inventories in the accounting systems of wine-producing enterprises.

Keywords: accounting, production costs, inventories, accounting registers, assets, inventory count, material productivity.

Аннотация. В статье рассмотрены теоретические вопросы ведения и совершенствования бухгалтерского учёта на предприятиях винодельческой промышленности. Кроме того, разработаны предложения по совершенствованию учёта и отражения товарно-материальных запасов в системе бухгалтерского учёта предприятий винодельческой промышленности.

Ключевые слова: бухгалтерский учёт, производственные затраты, товарно-материальные запасы, учётные регистры, активы, инвентаризация, материалоотдача.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotning agrosanoat majmuasida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ularning oldini olish optimal qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Mamlakat agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning eng yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil qiladi. Agrosanoat majmuasini butun mamlakat iqtisodiyotidan ajratib ko'rish noto'g'ri bo'ladi. Mazkur sohadagi ayrim muammolar iqtisodiy tizimdagi umumiy omillar bilan bog'liq. Bu, birinchi navbatda, korxonalardagi moliyaviy beqarorlik, mulk huquqi va shartnomalar bajarilishining huquqiy kafolatlari yo'qligi hamda boshqaruvning past darajada shakllanganligini ifodalaydi. Sof sohaviy xarakterga ega bo'lgan bir qancha muammolar mavjud. Rentabellik darajasining nisbatan pastligi qishloq xo'jaligida investitsiya jarayonlari va texnik yangilanishlarga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Vinochilik sanoati iqtisodiy ahamiyatga ega tarmoqlardan biri bo'lib, tadbirkorlik subyektlari faoliyati va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muayyan o'rin tutadi. Bu butun dunyo iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ham, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatga ega. Bu sohaning bugungi kundagi rivojlanishi va istiqbollari nuqtai nazaridan xalqaro raqobat doirasida o'rganish ayniqsa dolzarbdir.

Hozirgacha alkogol sektori qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati bilan bog'liq boshqa tarmoqlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi budjeti uchun muhim daromad manbalaridan biridir, chunki O'zbekistonda ishlab chiqariladigan va chetdan olib kiriladigan alkogolli ichimliklarning aksariyati aksiz solig'iga tortilishi sababli mazkur soha davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muayyan ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar xalqaro bozordagi zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar ta'sirida shakllanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, vinochilik sanoati tashkilotlari inventarlarini shakllantirish, nazariy asoslash, tasniflash, baholash va tahlil qilish, shu asosda vinochilik sanoatida buxgalteriya hisobini

takomillashtirish, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilish va hisob registrlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

Vinochilik sanoati tashkilotlarining buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralar, joriy aktivlar eng muhim o'rinlarni egallaydi, chunki inventarizatsiyaning asosiy elementlari xom ashyo va materiallar hamda tayyor mahsulotlardan iborat.

Bir nechta mahalliy va xorijiy olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida aynan vinochilik sanoatida buxgalteriya hisobining mohiyati va mazmuni hamda uni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borgan. Ulardan:

Efimova O.V. [5] o'z ilmiy ishlarida vinochilik sanoatida buxgalteriya hisobining uslubiy va metodologik muammolarini tadqiq qilgan. Lekin ushbu fikrlarning mazmunidan kelib chiqadiki, aktivlarni tovar-moddiy zaxiralar deb tasniflash mezonini tashkilotning ishlab chiqarish-tijorat sikli davomida ularni iste'mol qilish yoki xaridorlar tomonidan to'lash sharti ham bo'lishi mumkin, bu davr o'rtasidagi o'rtacha vaqt oralig'i sifatida tushuniladi.

Kovaleva A.M. [6] ta'kidlashicha, vino mahsulotlari raqobat sharoitida bozorda iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan mahsulot (xizmat)larning tabaqalashtirilgan shakli hisoblanadi.

Tabiiy tartibga solishning narxsiz usullariga quyidagilar kiradi: tabiiy mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlash, majburiy audit, tabiiy segmentni ajratish, bitta kompaniya ichidagi potensial raqobatbardosh va tabiiy segmentlarning alohida balansini yuritish, tenderlarni tashkil qilish, franchayzing uchun iste'molchilarning ayrim guruhlariga majburiy xizmat ko'rsatish.

Kolchina N.V. [8] qo'shimcha xarajatlarning tuzilishi va xususiyatini tahlil qilib, tabiiy vinochilik sohasi tushunchasiga katta hissa qo'shdi. Uning ta'kidlashicha, yalpi xarajatlar ulushi yuqori bo'lgan ayrim sohalarda raqobat muhiti mukammal emas. Talab pasayganda bunday tarmoqlarda narxlar o'rtacha xarajatlardan past bo'lishi mumkin. Boshqa paytlarda ishlab chiqaruvchilar tomonidan iste'molchilarni narx borasida kamsitish, yashirin chegirmalar va boshqa vositalar bilan yetkazilgan zararni qoplash urinishlarini kuzatish mumkin.

Kondrakova N.P. [7] buxgalteriya hisobi, bir tomondan, ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi iqtisodiy ma'lumotlarni ro'yxatga olish, baholash, tizimlashtirish, umumlashtirish va manfaatdor xo'jalik subyektlariga o'tkazishni amalga oshiradigan nisbatan mustaqil tizimdir, deya ta'kidlagan.

Kutera M.I. [9] fikricha, buxgalteriya hisobi sodir bo'layotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy hayoti faktlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, ro'yxatga olish, tasniflash, tahlil qilish va sintez qilish, saqlash, uzatish va qo'llashning jadal rivojlanayotgan tizimi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Sokolova O.V. [10] ta'kidlashicha, buxgalteriya hisobi va nazorati masalalari bir butun sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Agar nazoratni rivojlantirish haqida gapiradigan bo'lsak, unda buxgalteriya hisobini takomillashtirish haqida gapirish kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda vinochilik sanoati korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirishga oid ilmiy ishlarni o'rganish, narx shakllanishini qiyosiy tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar qatoriga materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar kiradi. Tovar-moddiy zaxiralarning asosiy qismi materiallar sifatida ishlatiladi — har qanday korxonaning ishlab chiqarish siklining eng muhim elementlaridan biri. Tovar-moddiy zaxiralar mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ishlatiladigan mehnat obyektlaridir. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ular har bir ishlab chiqarish siklida to'liq iste'mol qilinadi va o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga to'liq o'tkazadi. Har xil turdagi materiallarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga qarab, ular quyidagi guruhlariga bo'linadi: xom ashyo va asosiy materiallar; yordamchi materiallar; sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar; qaytariladigan chiqindilar; yoqilg'i; idishlar va idishbop materiallar; ehtiyot qismlar.

Materiallar bilan bir qatorda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagilar kiradi: sotish uchun mo'ljallangan, ishlab chiqarish jarayonining yakuniy natijasi bo'lgan, qayta ishlash bilan yakunlangan, texnik va sifat ko'rsatkichlari shartnoma shartlariga yoki hujjatlar talablariga javob beradigan tayyor mahsulotlar, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar; boshqa yuridik va jismoniy shaxslardan sotib olingan yoki olingan hamda keyinchalik qayta ishlanmasdan sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar [4].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-moddiy zaxiralar vinochilik sanoati subyektlari barqarorligini ta'minlaydigan



eng muhim resurslardan biri hisoblanib, faoliyatning yakuniy natijasi, ularning hajmi va darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, tovar-moddiy zaxiralarning mohiyatini o'rganish va tushunish buxgalteriya hisobining eng muhim muammolaridan biri sanaladi va bu yuqori darajadagi amaliy zarurat hamda ulardan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan oqilona foydalanish bilan bog'liq.

Vinochilik sanoati subyektlari muayyan darajada tovar-moddiy zaxiralariga ega bo'lishi talab etiladi, bunda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- ishlab chiqarish faoliyati mustaqilligini ta'minlash, masalan, tovar-moddiy zaxiralar yordamida vaqt yo'qotishlarini qisqartirish;
- ish joylarining mustaqilligini ta'minlash. Bu mahsulotlarni qayta ishlashdagi kechikishlarni qoplash va ishlab chiqarish jarayonining yuqori izchilligini ta'minlash uchun zaxiraga bo'lgan ehtiyoj bilan tavsiflanadi;
- mahsulotlarga bo'lgan talabning o'zgarishini hisobga olish zarurati (tayyor mahsulotning ma'lum zaxirasini saqlash);
- ishlab chiqarish faoliyati moslashuvchanligini ta'minlash (mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash vaqtining ortishi, o'z navbatida, kamroq xarajatlar bilan ko'proq hajmdagi tayyor mahsulot ishlab chiqargan holda nisbatan bir maromdagi ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish imkoniyatini ta'minlaydi);
- xom ashyo yetkazib berish davridagi tebranishlardan himoya qilishni ta'minlash.

Ishlab chiqarish zaxiralarini tadqiq etishning dastlabki bosqichida ularning ma'lum bir davr uchun dinamikasi o'rganiladi, joriy aktivlar hajmidagi salmog'i hisoblab chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda bazaviy va hisobot davri ko'rsatkichlarini taqqoslash yo'li bilan tovar-moddiy zaxiralar tarkibi va strukturasi tahlil qilinadi. Struktura tahlili barcha zaxira turlarining ular umumiy qiymatidagi salmog'ini, shuningdek, ularning joriy aktivlar tarkibidagi ulushini ko'rsatadi. Aktivlar strukturasi o'rganishda gorizontaal va vertikal tahlildan foydalaniladi.

Uchinchi bosqichda tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiritiladi: zaxiralarning aylanuvchanligi, material qaytimi, material sig'imi, korxonaning zaxiralar bilan ta'minlanganligi, zaxiralar rentabelligi va hokazo.


Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishning muhim qismi sanalgan omillar tahlili ishlab chiqarish zaxiralarining shakllanishi va harakatiga tashqi va ichki omillarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Tashqi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish lozim:

- mol yetkazib beruvchilar ta'siri. Bu materiallar yetkazib berish muddatiga rioya qilinmasligi, shartnoma shartlarining buzilishini o'z ichiga oladi;
- xaridorlar ta'siri talab hajmi o'zgarishida o'z ifodasini topadi.

Vinochilik sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar darajasini tovar-moddiy zaxiralar hajmini imkon qadar kamaytirish siyosatini tanlaganida (ombordagi zaxiralarning qisqarishi, o'rtacha debitorlik qarzlari qiymatining pasayishi) ushbu yondashuvning afzalliklari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari ham mavjud. Xom ashyo va materiallarni yetkazib berishda nosozliklar bo'lishi mumkin, bu ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishiga olib keladi, mahsulot uchun haq to'lash bo'yicha ortiqcha talablar tashkilotni doimiy mijozlarning bir qismidan mahrum qiladi, joriy hisobvaraqlarda naqd pul zaxirasining yo'qligi munosabatlarni murakkablashtiradi. Bular, birinchi va ikkinchi hollarda ham to'g'ridan to'g'ri, ham bilvosita moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Vinochilik sanoati subyektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun puxta o'ylab chiqilgan zaxiralarni boshqarishni ta'minlash lozim bo'lib, u quyidagi bosqichlarni ko'zda tutadi [5].



1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish bosqichlari¹

Ichki omillar qatoriga tashkilotdagi ishlab chiqarish-xo'jalik muhitining ta'sirini tavsiflaydigan omillar kiradi. Ushbu omillar guruhi kadrlar qo'nimsizligi va kasbiy tayyorgarligi, moddiy resurslarga ehtiyojni noto'g'ri rejalashtirish, tovarlarni saqlash uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Yakuniy bosqichda tovar-moddiy zaxiralar darajasini nazorat qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Tovar-moddiy zaxiralar auditini samarali tashkil qilish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot tannaxsini kamaytirishga, foyda miqdorini oshirishga hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga erishish mumkin. Shu boisdan tovar-moddiy zaxiralar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi [2].

Vino ishlab chiqaruvchi korxonaning barcha bo'linmalari ikki guruhga bo'lingan: ishlab chiqarish va boshqaruv hamda xizmat ko'rsatish sohalari. Faoliyat xarakteriga ko'ra ishlab chiqarish birliklarining bir qismi sifatida ikkita guruh ajratiladi: asosiy ishlab chiqarish birliklari (korxona faoliyati bo'yicha) va asosiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradigan birliklar (mahsulotlarni qadoqlash uchun idishlar ishlab chiqarish), ular yordamchi va ikkilamchi deb ataladi.

Vinochilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish bo'linmalari tarkibi texnologik ixtisoslashuv tamoyilidan foydalanishga qaratilgan. Bunday tuzilma uchun bajariladigan texnologik jarayonlarning (operatsiyalarning) bir xilligi asosida bo'linmalarni (qayta bo'lishlarni) ajratib ko'rsatish xarakterlidir.

Tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanishdan maqsad ularni yaratish va saqlashning umumiy xarajatlarini minimallashtirishdan iborat. Har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt zaxiralarga yo'naltirilgan jami mablag'lar hajmini maqbullashtirishga intiladi, shuning uchun ularni tartibga solish xom ashyoning tashkilotda bo'lgan vaqtini minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- buyurtma qilingan yuklar hajmini va xavfsizlik zaxirasi hajmini optimal darajaga yetkazish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish sikllarining optimal davomiyligini saqlash;
- ombordagi materiallarni saqlash davrlarining davomiyligini qisqartirish (materiallarni qabul qilish va ishlab chiqarishga berish o'rtasidagi vaqt oralig'ini qisqartirish);
- materiallar olinganidan keyin iloji boricha tezroq foydalanishni rejalashtirish;

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



- materiallarni individual qabul qilish va berish o'rtasidagi bo'shliqlarni minimallashtirish;
- har bir ombordagi tovarlar hajmini minimallashtirish;
- minimal miqdordagi omborlardan foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bundan tashqari, xom ashyo va materiallarni yetkazib berish uchun buyurtma hajmini bilish kerak, chunki uning hajmi buyurtmaning narxi va inventarni saqlash xarajatlari minimal bo'ladigan shartga mos kelishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning eng daromadli tarmoqlaridan biri bo'lgan vinochilik sanoati budjetni to'ldirishning asosiy manbalaridan biri sifatida uni ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga ham, u nazoratida bo'lgan davlatga ham sezilarli daromad keltiradi. Vinochilik mahsulotlarini ozuqaviy baholashning asosiy afzalligi, ustun xususiyati uning fiziologik qiymatlari va organoleptik xususiyatlarining keng doirasi hisoblanadi.

Tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning nazariy va tashkiliy jihatlarini o'rganish natijasida tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobi tizimidagi operativ, analitik va sintetik hisob obyekti sifatidagi iqtisodiy mohiyati yoritib berildi. Tadqiqot natijalaridan tovar-moddiy zaxiralarning mazmunini nazariy jihatdan o'rganish, ulardan foydalanish samaradorligini baholash hamda tegishli tahliliy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: darslik. – Toshkent, 2018.
2. Ochilov I.K., Kurbanbayev J.E. Moliyaviy hisob: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.
3. Zemsova N.A. Razvitiye sistemy upravlencheskogo ucheta v pererabatyvayushchey otrasli APK: avtoref. dis. ... kand. ekon. nauk. – Michurinsk: Michurinskiy gosudarstvennyy agrarnyy universitet, 2010.
4. Feskova M.V. Vliyaniye organizatsionno-tekhnologicheskikh osobennostey vinodeliya na organizatsiyu i vedeniye upravlencheskogo ucheta // Konsept. – 2014. – Vyp. 2. – Art. 55032. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/55032.htm> (murojaat sanasi: 23.07.2026).
5. Yefimova O.V. Finansovyy analiz: instrumentariy obosnovaniya ekonomicheskikh resheniy. – Moskva: KnoRus, 2020.
6. Kovaleva A.M., Lapusta M.G., Skamay L.G. Finansy firmy: uchebnyk. – Moskva: INFRA-M, 2000. – 416 s.
7. Kondrakov N.P. Buxhgalterskiy uchet: uchebnoye posobiye dlya perepodgotovki i povysheniya kvalifikatsii bukhgalterov-ekonomistov. – Moskva: Institut professionalnykh bukhgalterov Rossii; Informatsionnoye agentstvo «IPB-BINFA», 2002. – 304 s.
8. Kolchina N.V., Polyak G.B., Pavlova L.P. va boshq. Finansy predpriyatiy: uchebnyk dlya vuzov / pod red. N.V. Kolchinoy. – 2-e izd., pererab. i dop. – Moskva: YuNITI-DANA, 2001. – 447 s.
9. Kuter M.I. Teoriya bukhgalterskogo ucheta: uchebnyk. – 2-e izd., pererab. i dop. – Moskva: Finansy i statistika, 2002. – 640 s.
10. Finansy, dengi, kredit: uchebnyk / pod red. O.V. Sokolovoy. – Moskva: Yurist, 2000. – 784 s.
11. Accounting.com. Accounting principles and standards. – URL: <https://www.accounting.com> (murojaat sanasi: 23.07.2026).
12. GAAP.ru. Международные стандарты финансовой отчётности и бухгалтерский учёт. – URL: <https://gaap.ru> (murojaat sanasi: 23.07.2026).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100